


PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQIQOTLAR

Onlayn ilmiy jurnal



Jild: 03 Nashr: 05 (2024)

www.mudarrisziyo.uz





AYOLLAR JOZIBASINING NEYROPSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Bobokalonov Ramazon Razhabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Isroilova Xurshida Nafiddin qizi
Buxoro Maqola Universitetining iqtidorli IV kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola ijtimoiy hayotdagi neyropsixologik nuqta sifatida ayollarning jozibadorligi masalalarini, shuningdek, gender tengligi va hayotning barcha sohalarida jozibadorlikning rolini o'rganadi. Ayolning jozibadorligi juda ko'p lingvistik tushuntirishlar bilan ko'p narsani anglatadi. Lingvistik shaxs, xarizmatik shaxs ba'zi xarakterli xususiyatlarni belgilab beradi. Maqolada tabassum va ishonch jozibador bo'lismi omillari sifatida berilgan.

Kalit so'zlar: psixologistik xususiyatlar, xarizmatik shaxs, lingvistik shaxs, tabassum, ishonch, jozibadorlik, aql.

Kirish

Lisoniy shaxs jozibasi, gender tengligi, erkak va ayollarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda o'zaro munosabati masalasi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy jarayondir. Ijtimoiy hayotda lisoniy shaxsning xarizmali insonga integratsiyasi qilish muammosi ayollar jozibasining neyropsixolingvistik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu masalarning yechimi jozibali nutqni shakllantirishning neyropsixolingvistik muammosiga borib taqaladi.

O'z vataniga sodiq, haqiqiy mehnatsevar, vatanining kelajagi va ravnaqi uchun qolidan kelguncha harakat qiladigan jozibali insonlarni tayyorlash, ular jamiyatning qaysi bo'g'inida bolmasin, qaysi sohada faoliyat ko'rsatishidan qatiy nazar jamiyatning rivojlanishi uchun qo'ldan kelgancha harakat qiladigan xarizmali insonlar ehtiyoja aylanib bormoqda. Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalashda jozibali va xarizmali insonlar juda zaruzdir.

Asosiy qism

Gender tengligi nuqtai nazaridan (xoh erkak bo'lsin xoh ayol) xarizmali inson ham ma'nан va ham ruhan jozibali bo'lishi talab etiladi. Insonning jozibali nutqi uni xarizmali qiladi. Xarizmatik fe'l-atvorli shaxs jozibali bo'lishga da'vosi bo'ladi va o'ziga alohida dasturulmaqsad tuza oladi. Xarizmali bo'lish tinimsiz mehnat, shijoat, g'ayrat va sabr-toqatni talab etadi. Shularning natijasida inson jozibali va xarizmasi bo'lib yetishadi. Darhaqiqat, «Xarizmali insonda qanday fe'l-atvor uni jozibali va yuqori darajali shax qila oladi» degan savolga shunday qat'iy va me'yoriy javob tayyor.

Xarizmali insonlar :

- Ular o'zlarini va boshqalarni hurmat qilishadi.
- Ular hech kim yoki hech narsa uchun o'zlarini past ko'rmaydilar.
- Ular o'zlarining va atrofdagilarning qadr-qimmatini qadrlashadi.
- Ular o'ziga ishonadilar, lekin takabbur emaslar.

Ular muloyim, lekin uyatchan emaslar.
Ular boshqalarni chin dildan maqtashadi, lekin xushomad qilmaydilar.
Ular jozibali va chiroyli ko'rinati, ammo "qo'pol" emaslar.
Ularning o'sishlarini sezdirmaydilar, lekin ularni ijobiy eslaydilar.
Ular e'tiborni emas, balki hurmatni xohlashadi.
Ular kiyinishda moda tendentsiyalarini ta'qib qilmaydilar, ularning o'z kiyinish uslubi va qoidalari bor.
Ular o'zlarining kompaniyalarida liderlar, ular har qanday bilib bajargan ishlaridan zavqlanishadi.

Endi jozibali ayollarning oila, jamiyat va jamoa o'rtasidagi vazifalari haqida mulohaza yuritamiz. Xarizmali ayollarning eng jozibali tomoni nimada?

Hayotiy tajriba nuqtai nazaridan ularni ko'rish va his qilish oson. Ular erkin, ichki olamida ozod, o'z tanalarida to'liq yashaydigan, hech kimga provokatsiya qilmasdan, hech narsani isbotlamasdan ayollikning ajoyib energiyasini mo'l-ko'l yetkazadigan bo'lishadi. O'zini anchalik zerikarli "feminizm" deb nomlangan tajovuzkorlikning shakli orqasida to'sib qo'ymasdan, shunchaki, oddiy va jozibali bo'lishni biladigan, o'qimishli va farosatli insonlardan hisoblanadi. Ular faqatgina erkaklar kuchli va ayollar esa nihoyatda zaif deb o'zlariga baho berishmaydi. Aksincha, erkaklardan qolishmaydigan darajada dinamik harakatchan, sabotli va maydonda o'zini bilimli, zakovatli, aqli, iymonli ekanligini erkin namoyon etadigan noyob qobiliyatli shaxslardan hisoblanishadi [4; 6; 7; 9].

Qanday fazilatlar ayolni jismoniy holatidan qat'iy nazar yanada jozibali qiladi? Bu savol nafaqat ijtimoiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jozibali so'zi ayollarga nisbatan ishlatilsa, o'z o'rmini topgandek bo'ladi. Biroq erkakka nisbatan ayol tomonidan nishlatilgani ma'qul ko'rinati. Uning aql-zakovati, jozibasi, mehribonligi, hazil-mutoyibasi, tabassumi, kulgisi, qarashi, imo-ishoralar, nima deyishi va nima demasligi, uning shaxsiyati va nihoyat uning ruhi kompleks holda mukammallikni ifodalaydi.

Bizningcha, jozibali inson bo'lishga jinsning ahamiyati yo'q. Ayolni o'ziga jalb qilish uning chiroyi uchun emas, balki jozibali bo'lganligi uchun ahamiyatlidir. Jozibali ayol nafis, yoqimli, latofatli, nazokatli, chiroyli va go'zal bo'lishni o'ziga tarbiyalab boradi va ko'zlangan maqsad va jozibaga erishadi ham.

Jozibali ayollarning boshqa ayyollardan farq qiladigan jihatni ham uning jozibaliligida. Ehtimol, barcha ayollar bu imkoniyatlardan foydalanishni xohlashar yoki foydalanishni bilishar. Ammo jozibali bo'lish faqat xulq-atvor doirasida belgilab qo'yilgan qat'iy shart emas. Insonning nutqi ham, kiyimi ham, so'z topib gapirishi ham jozibali bo'lishi kerak. Agar u modda izidan chopib, shahardagi olifta odamlarga o'xshab kiyinsa, u haqiqatan ham bu mezonlarga javob bermasligi aniq. Bundan tashqari, bu mezonlar erkaklarga ham, ayollarga ham yoqmasligini hamma biladi [2; 6; 7; 9].

Tashqi qiyofadagi ayrim nuqsonlarni faqat yaxshi ta'lif olish va yaxshi xulq-atvor bilan yopish mumkin. Ayollik jozibasi haqida gap ketganda, har qanday ayol erkakning e'tiborini o'ziga jalb qilsada, biroq, umumiy estetik go'zallikni qadrlash nuqtai nazaridan unda standart va universal mezonlar mavjud bo'lmas ekan, ma'lum jismoniy va morfologik xususiyatlarni inobatga olmasdan, ularni jozibador deb aniq aytishimiz mumkin emas. Mukammallikdan paydo bo'ladigan sirli go'zallik ham borki, u nafaqat statik yoki qo'zg'almas, balki dinamik harakat, ifoda, ovoz tembri, nozik yumshoqlik, zohiriy yengillik bilan jozibali ayol haqiqatdan jozibali sanaladi. Buni hech qachon bir so'z bilan tushuntirib bo'lmaydi va har qanday me'yorni joziba mezoni sifatida belgilash ham juda murakkabdir. Buni faqat his qiladigan ruhiy ta'sir orqali bilish mumkin.

Neyropsixologlarning fikricha, inson miyasi odatda yoqimsiz yoki bezovta qiluvchi narsani osonroq aniqlashdan iborat bo'lgan ma'lum bir naqsh bo'yicha ishlaydi va biz yoqimsiz yoki bezovta qiluvchi bo'Imagan hamma narsa potentsial yoqimli degan xulosaga kelamiz. Bu, ehtimol, individual tur yoki xususiyatning boshqalar oldida o'zini o'zi saqlab qolish bilan bog'liq bo'lgan o'lchovdir. Agar biz ibtidoiy refleks bilan jozibalikni tor ma'noda tushunsak, biz noto'g'ri xulosalarimizdan xalos bo'lishda qiyinchilikka duch kelamiz va agar biz bunga e'tibor bermasak, yanglishgan bo'lamiz. Biz ekstremal sharoitlarni tezda tanymiz, lekin nuanslarda o'zimizni qora bulut kabi tumanga qo'yib, adashib qolamiz.

Agar biz istalgan jinsning (erkak yoki ayol) jozibadorligiga sof intuitiv tarzda baho bersak, sof estetik va biologik o'lchov, chiroli yoki chiroli emas, yaxshi yoki yaxshi emas kabi ibtidoiy dualistik reflekslarga osongina yo'l ochib beramiz. Ba'zan, ehtimol, hatto tez-tez, ko'proq yoki kamroq ayol va erkaklarning jozibali tashqi ko'rinishi, yoqimli kutilmagan hodisalarni tuyishimizga yordam beradi. Balkim, restoranda menu daftari kabi taklif qilingan mahsulotlarni ko'rgandek bo'lamizu, ammo lazzatni qadrlash uchun uni tatib ko'rmasgan bu reklama taom o'rnini belgilamasligini, ba'zida taom menyuda ko'rindiganidan ham yaxshiroq bo'lishini tasavvur qila olmaymiz[3; 4; 5; 7; 9].

Tashqi ko'rinish nimanidir yashirsa, ichki ko'rinish yashiringan narsani fosh etadi. Shunday qilib, jozibali ayol haqida biz bilmagan va uni qadrlashga sabab bo'ladigan go'zallik, joziba va estetik iffat mavjud.

Xo'sh, bir zumda odamni nima yanada jozibali qiladi? Hech ikkilanmasdan tabassum deb javob berish mumkin. Lekin tabassumning qaysi birini afzal ko'rish tanlovga bog'liq. Neyropsixolinguistik nuqtai nazardan tabassum sizni yanada jozibali qilishi uchun nafaqat bilim va malakaga ega bo'lish lozim, balki :

- tabassum boshqalarga ijobiy xulosani berishi uchun uning neyronlarini oynada bir mashq qilib chiqish kerak, albatta;
- tabassum yanada ishonchli, muvaffaqiyatga erishgandek taassurot qoldirishi zarur;
- tabassum sheriklik, hamkorlik va ijobiy aloqani targ'ib qilishi shart;
- tabassum ishontirishga va fikrlarni qabul qilishga yordam berishi darkor ;
- tabassum kortizolni tartibga solish orqali stressni kamaytirishi shart;
- tabassum hujayralarni kislorod bilan to'ldirishi va immunitet tizimini rag'batlantirishi lozim;
- tabassum egasi, tabassumda farovonlik garmoni bo'lgan endorfin ajralishi tufayli o'zini yanada xotirjam his qilishi kerak;
- tabassum qilish o'rni va vaqtini to'g'ri belgilash lozim;
- tabassum qilishga yosh nuqtai nazaridan kechikmaganligini yoki vaqt o'tmaganligini inobatga olish darkor [2; 4; 5; 9].

Bu hech qanday vaqtini, pulni, maxsus ko'nikmalarni yoki chuqur bilimlarni o'rganishni talab qilmaydi. Faqat bu haqda bir oz o'ylab ko'rish va jozibali bo'lishga qadam qo'yish kerak, xolos.

Aslida, erkak yoki ayolni dastlab o'ziga jalg qiladigan narsa uning tashqi ko'rishini emas, balki uning ichki olami, zakovati, tafakkuri, dunyoqarashi, ulug' maqsad sari og'ishmay jasorat va namuna ko'rsatishidir. Ayolning oila va jamoa ishiga munosabati ham katta ahamiyatga ega. Agar inson doimo o'zini baxtsiz his qilsa, unda negativlikdan xalos bo'lish istagi tug'ilishi shart va zarur. Shuning uchun ham ijobiy, tabassumli, xarizmatik bo'lishga harakat qilinadi, o'z ishonchni namoyon etib, muvaffaqiyatga erishish yo'lini tanlashning kechi bo'lmaydi.

Ko'rinib turibdiki, jozibali ayol yoki inson haqida bitta javob yo'q, chunki vasvasaga tushgan har kimda turli xil afzalliklar bo'yicha misol topiladi. Biroq, ko'pchilik ayollarda jozibali deb hisoblaydigan umumiyl xususiyatlar mavjud.

Neyropsixolingvistik talab nuqtai nazaridan aytganda har bir inson fe'l-atvorida mujassam bo'lgan quyidagilar juda ahamiyatlidir:

- O'ziga ishonch tuiyg'usi: o'ziga ishongan va o'zini yaxshi baholaydigan ayollar juda jozibali bo'lishi mumkin. O'ziga bo'lgan ishonch turli yo'llar bilan namoyon bo'lishi mumkin, masalan, u o'zini jamoa oldida tutishi, jozibali nutqi yoki boshqalar bilan yaxshi munosabati. Har bir erkak jozibali ayolni ana shu tamoyilda bo'lishini istaydi.

- Jozibasi va xarizma bo'lish orzusi: tabiiy joziba va xarizmaga ega bo'lgan ayollar juda jozibali bo'lishi mumkin. Buni ularning tabassumi, tana tili, gapirish va muloqot qilish usullari yorqin ko'rsatib turadi.

- Jismonan sog'lom va ko'rinishda chiroqli bo'lishi: O'zining tashqi ko'rinishiga g'amxo'rlik qiladigan, benuqson gigienaga ega va yaxshi kiyangan ayollar juda jozibali bo'lishi mumkin. Ammo bu ularning mukammal bo'lishi yoki qat'iy go'zallik standartlariga javob berishi kerak degani emas, balki ular tashqi ko'rinishi va xulq-odobi bilan o'z jamoa azolarini qanday boshqarishni bilishlari muhim.

- Aql-idrok va hazil mutoyibali ko'ngli ochiq bo'lish: aqli va yaxshi hazil tuyg'usiga ega bo'lgan ayollar ham juda jozibali bo'lishi mumkin. Qiziqarli suhbat qurish, ular hazilkashlik va kulish qobiliyatini bilan ajralib turishadi hamda ochiq ko'ngilli ekanliklarini, nazokatli va jozibali ekanliklarini ochiqlab namoyon qilishadi.

- Tinglash va empatiyasi kuchli bo'lishi: tinglovchiga hamdardlik bildiradigan ayollar ham juda jozibali bo'lib ko'rindi. Odamlar ko'pincha o'ychan va boshqalar haqida qayg'uradiganlarni o'ziga jalb qiladi. Inson qalbidagi qulfni ochish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi [2; 3; 4; 5; 6; 7; 9].

Xulosa

Ko'rinishi bejirim, kiyinishi jismiga monand, gigienasi a'lo (xushbo'y hid, o'ziga e'tiborli) yaxshi bilimdon (nutqida ko'cha tilini ishlatmaydigan, xushmuomalali, hurmat-e'tiborli, yumshoq-muloyim) kabi mezonlarda o'zini ijobiy ko'rsata oladigan ayollar juda jozibali bo'lishadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jozibadorlik sub'ektivdir va bir kishi uchun jozibador bo'lган narsa boshqalar uchun jozibali bo'lib ko'rinishi shart emas. Har bir insonning o'ziga xos didi va afzalliklari bor, shuning uchun ayolni jozibali qiladigan narsa uni boshqa odamlardan ajralib turishidir. Birovning jozibaliligi o'zga odam jozibasidan farq qilishi tabiiy holdir. Har bir erkak uchun o'z ayoli, va har bir ayol uchun o'z turmush o'rtog'i doim jozibali bo'lib ko'rinishi ideal oilaning baxtini belgilab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобокалонов Р. Тил, миллий рух ва маънавият (мулоҳаза, мушоҳада ва муносабат). Илмий-оммабоп рисола, Тошкент, 2020. 9 б.
2. Bobokalonov R. R. Speech production, semiotic sign, discourse and neuropsycholinguistic status. Monograph, GlobEdite. Republic of Maldova, Europe printed, 2023. P. 3-223.ISBN: 978-620-0-64729-0.
3. Бобокалонов Р.Р. Нейропсихолингвистика: языковая личность и харизматичный человек (Теория, практика и методология). Monografiya, LAMBERT Academic Publishing, Shisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 s. ISBN 978-620-6-15214-9
4. Bobokalonov R. R. Neuropsycholinguistics: linguistic personality and charismatic person. Theory, practice and methodology. Monografiya, LAP LAMBERT Academic Publishing, Republic of Moldova, Europe printed. 2023. P. 3-230. ISBN: 978-620-6-15214-9.
5. Po'lotshoh Bobokalonov. Kanonik modelli nutqiy hosilalarning tollerantlikka aloqadorligi. Monografiya, "Fan ziyosi" nashriyoti, Toshkent, 2021.

6. Sayfullaeva R. R., Bobokalonov R. R. Neuropsycholinguistics: the linguistic personality and the charismatic person. Monograph in uzbek, GlobEdite. Republic of Moldova, Europe printed, 2023. P. 3-149 ISBN: 978-620-0-64878-5.
7. Bobokalonov R. R. Communicative speech and neuropsicolinguistic state. LAP Lambert Academic Publishing. Republic of Moldova, Europe printed. 2024. P. 3-158. ISBN: 9786207465583
8. Bobokalonov R. O'zbek tilida gap qurilishi va sistem-struktur talqini. Monografiya.– Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2006. -123 b.
9. Bobokalonov R. Neyropsixolinguistica : Xarizmali shaxs qobiliyati. Monographiya, GlobEdite. Republic of Moldova, Europe printed, 2024. P. 3-223. ISBN:9786206797227
10. Bobokalonov R.R. Нейропсихолингвистика: языковая личность и харизматический человек. Теория, практика и методика. Monografiya, LAP LAMBERT Academic Publishing, Republic of Moldova, Europe printed. 2023. P. 3-230. ISBN: 978-620-6-15214-9.
11. Bobokalonov R.R. Neyropsixolinguistica: shaxsiyatning rangin jilosi /“Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – Andijon davlat universiteti, 2023. - 470 bet.2023-yil, 15-may, 14-19 b.
12. Bobokalonov R.R. Xarizmali insonda nutq ko'rakligi / Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 05 | May - 2023 ISSN: 2181-2608 , 556-561 b.
13. Bobokalonov R.R. Neyropsixolinguistica: lingvistik shaxsning rangin olami / Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 05 | May - 2023 ISSN: 2181-2608 www.sciencebox.uz 377-382 b.
14. Bobokalonov R.R. Neyropsixolinguistica: shaxsiyatning rangin jilosi / “Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – Andijon davlat universiteti, 2023. - 470 bet.2023-yil, 15-may, 14-19 b.
15. Bobokalonov R.R. Communicative and Neuropsycholinguistic Problems of Semantic Functionally Formed Speeches. Spanish Journal of Innovation and Integrity. Volume: 06, 2022. 242-247 b.